

TASDIQLANGAN

“Urganch ekskavator” AJ
aksiyadorlarining navbatdan tashqari
jamiyati qabul qilishi majlis bayoni bilan
2023 yil 10-fevral



“URGANCH EKSKAATOR” AKSIYADORLIK JAMIYATI
USTAVI
yangi tahrirda

Urganch 2023 yil

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. “Urganch ekskavator” aksiyadorlik jamiyatining (bundan buyon matnda “jamiyat” deb yuritiladi) mazkur Ustavi O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni (bundan buyon matnda “qonun” deb yuritiladi) va boshqa qonun hujjatlari asosida ishlab chiqilgan.

1.2. Jamiyat o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq olib boradi.

1.3. Jamiyatning to‘liq nomi:

O‘zbek tilida: lotin harflarida “Urganch ekskavator” aksiyadorlik jamiyati, kirill harflarda “Урганч экскаватор” акциядорлик жамияти;

Rus tilida: Акционерное общество “Ургенч экскаватор”;

Jamiyatning qisqartirilgan firma nomi:

O‘zbek tilida: lotin harflarida “Urganch ekskavator” AJ, kirill harflarda “Урганч экскаватор” АЖ;

Rus tilida: АО “Ургенч экскаватор”;

1.4. Jamiyatning joylashgan yeri (pochta manzili): O‘zbekiston Respublikasi, Xorazm viloyati, Sanoatchilar ko‘chasi, 1-uy, pochta indeksi 220100.

1.5. Jamiyatning elektron pochta manzili: uez@mail.ru

1.6. Jamiyatning rasmiy veb-sayti: www.uez-jsc.uz

II. JAMIYAT FAOLIYATINING SOHASI (ASOSIY YO‘NALISHLARI) VA MAQSADI

2.1. Jamiyat tijorat tashkiloti bo‘lib, uning asosiy maqsadi moliyaviy-xo‘jalik faoliyatidan foyda olishdir.

2.2. Jamiyat o‘z maqsadlariga erishish uchun faoliyat va xizmat ko‘rsatishning quyidagi turlarini amalga oshiradi:

- bolt va gaykalar, shnurlar, vintlar va boshqa ishlab chiqarishga mo‘ljallangan metal buyumlar ishlab chiqarish;

- temir panjara, pilla poya tutqichlari temir eshik, ayvon (naves) va xavozalar ishlab chiqarish;

- qurilish uchun metal buyumlar ishlab chiqarish;

- qishloq xo‘jaligi texnikalariga servis xizmati ko‘rsatish va ularni ta‘mirlash;

- xalq ist‘emoli mollarini barcha turlarini ishlab chiqarish va sotish;

- savdo uylarini, markazlarini, do‘konlarni ochish va tijorat vositachilik va savdo sotiq faoliyatini amalga oshirish;

- temir yo‘l texnikalariga extiyot qismlar ishlab chiqarish va extiyot qismlarini qayta ta‘mirlash;

- xayriya tadbirlarini o‘tkazish, xayriya maqsadlari uchun mablag‘lar o‘tkazish;

- texnikaviy maqsadli asbob-uskunalarni sotib olish va sotish

- qurilish va melioratsiya mashinalarini, ekskavatorlar shuningdek zemsnaryadlarni ishlab chiqaradi xamda kapital va joriy ta'mirlash ishlarini bajaradi;

- barcha turdagi murakkab texnikalarni, avtomobillarni, ularning agregatlarini, boshqa ishlab-chiqarish uskunalarni kapital va joriy ta'mirlash, ularning qismlarini ishlab-chiqarish, texnik servis xizmati ko'rsatish va saqlash, ta'mirlash fondi tashkil qilish;

- extiyot qismlarni, asbob-uskunalarni, sanoat va qishloq xo'jalik maxsulotlarini, qurilish materiallarini, xalq iste'moli mollarni va boshqa tovarlarni sotib olish, chakana va ulgurji savdo qilish;

- respublika xududida va xalqaro yo'nalishlarda avtotransport bilan yuk tashish va boshqa ishlarni bajarish;

- balansida mavjud avtotransport vositalarini shartnoma asosida ijaraga yoki xizmat ko'rsatishga berish;

- axoliga jismoniy va yuridik shaxslarga pullik xizmat ko'rsatish;

- asosiy faoliyatini iqtisodiy ta'minlash va ishlab chiqarishni kuchaytirish maqsadida Jamiyat faoliyatiga mos kichik korxonalar va qo'shma korxonalar ta'sis etish, yordamchi xo'jaliklar tashkil etib, chorvachilik xamda dexqonchilik maxsulotlari yetishtiradi va ularni mehnat jamoasiga arzon narxda, ortikchasini esa jismoniy va yuridik shaxslarga shartnoma asosida sotish;

- qonunchilikda belgilangan boshqa faoliyat turlarini o'rnatilgan tartibda amalga oshirishi mumkin.

2.3. Jamiyat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda litsenziya olinishi kerak bo'lgan barcha faoliyat turlarini shunday litsenziya olinganidan so'ng amalga oshiradi.

III. JAMIYAT USTAV FONDI (USTAV KAPITALI)NING MIQDORI

3.1. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyadorlar olgan jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi.

3.2. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) 47 819 922 000 (qirq etti milliard sakkiz yuz o'n to'qqiz million to'qqiz yuz yigirma ikki ming) so'mni tashkil qilib, u har birining nominal qiymati 1 000 so'm bo'lgan 47 819 922 dona oddiy aksiyalarga bo'lingan.

Jamiyatning ustav fondi (kapitali)ni ko'paytirish

3.3. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin.

3.4. Qo'shimcha aksiyalar jamiyat tomonidan ushbu ustavda belgilangan e'lon qilingan aksiyalar soni doirasidagina joylashtiriladi.

3.5. Jamiyat ustav fondi (ustav kapitali)ni oshirish maqsadida joylashtirilgan aksiyalariga qo'shimcha ravishda chiqarishi mumkin bo'lgan e'lon qilingan aksiyalari miqdori 4 000 000 000 dona nominal qiymati 1 000 so'm bo'lgan oddiy aksiyalardan iborat.

3.6. Jamiyatning ustav fondi (kapitali)ni ko'paytirish qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risidagi qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha aksiyalarning umumiy qiymati, soni, turi, nominal qiymati, joylashtirish

tartibi, usuli, muddati, joylashtirish (aksiyalarning birja va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxi, aksiyalar uchun to'lov tartibi belgilanadi.

3.7. Qo'shimcha chiqarilayotgan aksiyalar ochiq va/yoki yopiq obuna usuli bilan belgilangan tartibda fuqarolik-huquqiy bitimlar tuzish yo'li bilan birja bozorida va/yoki birjadan tashqari bozorda joylashtiriladi.

3.8. Qo'shimcha chiqarilgan aksiyalar nominal qiymatidan kam bo'lmagan qiymatda va/yoki bozor qiymatida joylashtiriladi.

3.9. Jamiyatning aksiyalarini va boshqa qimmatli qog'ozlarini joylashtirish chog'ida ularga haq to'lash pul va boshqa to'lov vositalari, mol-mulk, shuningdek pulda ifodalanadigan bahoga ega bo'lgan huquqlar (shu jumladan mulkiy huquqlar) orqali amalga oshiriladi.

Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali)ni kamaytirish

3.10. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan, shu jumladan aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda jamiyat tomonidan aksiyalarni olish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

3.11. Ustav fondi (ustav kapitali)ni kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilgan vaqtda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ustav fondi (ustav kapitali)ni kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.

IV. JAMIYAT AKSIYALARINING SONI, NOMINAL QIYMATI, TURLARI VA ULAR BO'YICHA DIVIDENDLAR TO'LASH TARTIBI

4.1. Jamiyatning aksiyalari egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar bo'lib, ular turiga ko'ra oddiy aksiyalardir.

4.2. Dividend aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari yoxud jamiyatning qimmatli qog'ozlari bilan to'lanishi mumkin.

4.3. Dividend aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

4.4. Jamiyat moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to'qqiz oyi natijalariga ko'ra va/yoki moliyaviy yil natijalariga ko'ra joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

Jamiyat moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi va to'qqiz oyi natijalariga ko'ra dividendlar to'lash to'g'risidagi qarori tegishli davr tugagandan keyin uch oy ichida qabul qilinishi mumkin.

4.5. Aksiyalarning har bir turi bo'yicha dividendlar to'lash, dividendning miqdori, uni to'lash shakli va tartibi to'g'risidagi qaror jamiyat kuzatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

4.6. Dividendlar to'lash to'g'risidagi qarorda dividendlar to'lash boshlanadigan va tugallanadigan sanalar ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Dividendlarni to'lash muddati va tartibi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorida belgilanadi. Dividendlarni to'lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan e'tiboran oltmish kundan kech bo'lmasligi lozim.

V. JAMIYATNING ZAXIRA FONDI

5.1. Jamiyat sof foyda hisobidan zaxira fondini hamda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida aniqlanadigan, jamiyat faoliyati uchun zarur bo'lgan boshqa fondlarni tashkil etadi.

5.2. Jamiyatning zaxira fondi, boshqa mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda, jamiyatning zararlari o'rnini qoplash, jamiyatning korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish va jamiyatning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo'ljallanadi. Zaxira fondidan boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin emas.

5.3. Jamiyat ustav fondi (ustav kapitali)ning 15 foizdan kam bo'lmagan miqdorda jamiyat zaxira fondi tuziladi.

5.4. Jamiyat zaxira fondiga Ushbu ustavning 5.3-bandida belgilangan miqdorga yetguniga qadar har yili sof foydadan 5 foiz miqdorida ajratmalar o'tkazadi.

5.5. Zaxira fondi to'aligicha yoki qisman sarflanib bo'lgan hollarida, majburiy ajratmalardan tiklanadi.

VI. JAMIYAT BOSHQARUVINING TUZILMASI

6.1. Jamiyat boshqaruv organlari:

- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi;
- kuzatuv kengashi;
- ijroiya organi (bosh direktor).

VII. JAMIYAT AKSIYADORLARINING UMUMIY YIG'ILISHI

7.1. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi jamiyatning yuqori boshqaruv organidir.

7.2. Jamiyat har yili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini (aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini) o'tkazishi shart. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi.

7.3. Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- jamiyat ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash;
- jamiyatni qayta tashkil etish;
- jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;
- jamiyat kuzatuv kengashining son tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va a'zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, shuningdek kuzatuv kengashi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash;
- e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;
- jamiyatning ustav fondi (kapitali)ni kamaytirish;
- o'z aksiyalarini olish;

- jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, ijroiya organini tuzish, uning rahbarini saylash (tayinlash) va rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, shuningdek ijroiya organi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash;

- jamiyat taftish komissiyasining a'zolarini (taftishchisini) saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, shuningdek taftish komissiyasi (taftishchi) to'g'risidagi nizomni tasdiqlash;

- jamiyatning yillik hisobotini va yillik biznes-rejasini, shuningdek jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda jamiyatni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;

- jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash;

- jamiyat kuzatuv kengashining va taftish komissiyasining (taftishchisining) o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan jamiyat kuzatuv kengashining hisobotlarini va taftish komissiyasining (taftishchisining) xulosalarini eshitish;

- aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni sotib olishda aksiyadorning imtiyozli huquqini qo'llamaslik to'g'risida qarorni qabul qilish;

- aksiyadorlar umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash;

- aksiyadorlar umumiy yig'ilishi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash;

- aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;

- qonunchilikda belgilangan hollarda jamiyat tomonidan yirik bitimlar va jamiyat affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

- majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

7.4. Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlar, ushbu qarorlar qabul qilingan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay qonun hujjatlarida belgilangan tartibda aksiyador e'tiboriga yetkaziladi.

7.5. Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishi "Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishi"gi nizom asosida ish olib boradi.

VIII. JAMIYAT KUZATUV KENGASHI

8.1. Jamiyat kuzatuv kengashi jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi vakolatiga taalluqli masalalar bundan mustasno.

8.2. Jamiyat kuzatuv kengashining a'zolari jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi tomonidan uch yillik muddatga saylanadilar. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolarining soni 5 kishidan iborat.

8.3. Jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- jamiyatning biznes-reja ko'rsatkichlari bajarilishi, shuningdek, rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida jamiyat ijroiya organining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

- jamiyat aksiyadorlarining yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish, qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;
- jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi kun tartibini tayyorlash;
- jamiyat ustavining 7.3 bandida ko'rsatilgan masalalarini jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishiga hal qilishi uchun kiritish;
- mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;
- mol-mulkning begonalashtirilishi, uni sotish shakli va mexanizmi, jamiyat va uning tarkibidagi jamiyat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan xo'jalik jamiyatlari ustav kapitaliga uchinchi shaxslar tomonidan investitsiya kiritish bo'yicha kelishuvlar (bitim, shartnoma, memorandum va boshqalar) to'g'risida qaror qabul qilish;
- jamiyatning filiallarini tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;
- jamiyatning filiallari, vakolatxonalari va bo'linmalari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash;
- jamiyatning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish;
- jamiyatning yillik biznes-rejasini ma'qullash. Bunda jamiyatning kelgusi yilga mo'ljallangan biznes-rejasi jamiyat kuzatuv kengashi majlisida joriy yilning 1 dekabridan kechiktirmay ma'qullanishi lozim;
- ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, ichki audit xizmati to'g'risidagi nizomni tasdiqlash, shuningdek, har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;
- jamiyat ijroiya organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va jamiyat kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni ijroiya organidan olish. Jamiyat kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;
- auditorlik tekshiruvini o'tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;
- jamiyatning taftish komissiyasi a'zolariga (taftishchisiga) to'lanadigan haq va kompensatsiyalarning miqdorlari yuzasidan tavsiyalar berish;
- dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;
- jamiyatning zaxira va boshqa fondlaridan foydalanish;
- jamiyatning boshqaruv a'zolarini (raisdan tashqari) saylash (tayinlash), ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
- jamiyat boshqaruv a'zosi tarkibiga kirgan shaxsning vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, uning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlash;
- jamiyat ijroiya organiga to'lanadigan haq va/yoki kompensatsiyalarni, shuningdek ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash;
- jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish masalalarini, shuningdek jamiyat ustaviga jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish hamda jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi masalalarni hal qilish;
- qimmatli qog'ozlar chiqarilishi to'g'risidagi qaror va emissiya risolasini tasdiqlash;

- avval ro'yxatdan o'tkazilgan qimmatli qog'ozlar chiqarilishlariga o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritish;

- korporativ qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish vazifasini bajaruvchi jamiyat korporativ maslahatchisini tayinlash va unga to'lanadigan haq va kompensasiyalarning miqdorlari tasdiqlash, shuningdek korporativ maslahatchi to'g'risida nizomni tasdiqlash;

- qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

- jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

- jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

- aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash;

- qonunchilikda belgilangan hollarda jamiyat tomonidan yirik bitimlar va jamiyat affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

- jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish.

8.4. Jamiyatning kuzatuv kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni jamiyatning kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bo'lgan shaxslar soniga ko'paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ularni ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqlidir. Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar jamiyat kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

8.5. Jamiyat kuzatuv kengashining raisi kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan ularning o'zlari orasidan jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi. Jamiyat kuzatuv kengashi o'z raisini jami a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qayta saylashga haqlidir.

8.6. Jamiyat kuzatuv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlisda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi.

8.7. Jamiyat kuzatuv kengashi raisi yo'q bo'lgan hollarda uning vazifasini kuzatuv kengashi a'zolaridan biri amalga oshiradi.

8.8. Jamiyat kuzatuv kengashi majlislari uning raisi tomonidan har chorakda kamida bir marta chaqiriladi. Zaruriyatga ko'ra jamiyat kuzatuv kengashining navbatdan tashqari majlislari ham o'tkazilishi mumkin. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisi kuzatuv kengashining raisi tomonidan uning o'z tashabbusiga ko'ra, jamiyat kuzatuv kengashi, taftish komissiyasi (taftishchi), ijroiya organi a'zosi va ichki audit xizmati xodimlarining talabiga ko'ra chaqiriladi.

8.9. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisini o'tkazish uchun kворum kuzatuv kengashiga saylangan a'zolarining yetmish besh foizi va undan ortiqni tashkil etsa vakolatli hisoblanadi.

8.10. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida qarorlar, agar qonunchilikda boshqa hollar ko'zda tutilmagan bo'lsa, majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Jamiyat kuzatuv kengashi majlisida masalalar hal etilayotganda

kuzatuv kengashning har bir a'zosi bitta ovozga ega. Jamiyat kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini kuzatuv kengashning boshqa a'zosiga berishiga haqli emas. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan holda, jamiyat kuzatuv kengashi raisining ovozi hal etuvchi hisoblanadi.

8.11. Jamiyat kuzatuv kengashi jamiyatning "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi nizom asosida ish olib boradi.

IX. JAMIYATNING IJROIYA ORGANI

9.1. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik yakka boshchilik asosidagi ijroiya organi (bundan buyon matnda "bosh direktor" deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi. Jamiyat bosh direktor uch yillik muddatga saylanadi.

Bosh direktor sifatida tayinlangan (qayta tayinlangan) shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq jamiyat bosh direktori bo'lishi mumkin emas.

9.2. Bosh direktor jamiyatning kundalik faoliyatini boshqaradi va rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, jamiyat ustavi, jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi va kuzatuv kengashining qarorlariga muvofiq amalga oshiradi.

9.3. Bosh direktor jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi va kuzatuv kengashiga hisobot beradi.

9.4. Bosh direktor bilan mehnat shartnomasini jamiyat nomidan kuzatuv kengashi raisi va/yoki kuzatuv kengashi vakolat bergan shaxs tomonidan imzolanadi.

9.5. Bosh direktorga to'lanadigan haq miqdori jamiyat faoliyatining samaradorligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lib, mehnat shartnomasida belgilanadi.

9.6. Bosh direktorning vakolatlariga jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi va kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

9.7. Bosh direktor jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi va kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi.

9.8. Bosh direktorning majburiyatlari:

- jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish tutish;
- o'z majburiyatlarini u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq tegishli tarzda bajarish;

- jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi va kuzatuv kengash qarorlarining bajarilishini nazorat qilish;

- jamiyatning yillik biznes-rejasi ko'rsatkichlarining bajarilishini ta'minlash, har chorak yakunlari yuzasidan hisobot davridan keyingi o'ytizinchi sanasigacha kuzatuv kengashi oldida jamiyatning yillik biznes-rejasi bajarilishi to'g'risida hisobot berish;

- jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni kuzatuv kengashi, taftish komissiyasi (taftishchi) va/yoki jamiyat auditori talabiga ko'ra taqdim etilishini ta'minlash;

- jamiyat tarkibiy tuzilmalarining samarali hamkorlik yuritishini ta'minlash;

- jamiyat shartnoma majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash;

- jamiyatda buxgalteriya hisobining tashkil etilishi, holati va ishonchliligi, tegishli organlarga yillik hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlar o'z vaqtida taqdim etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish;

9.9. Bosh direktorning vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- mazkur ustav va o'ziga berilgan vakolatlarga muvofiq jamiyatning ishiga rahbarlik qilish;
- banklarda hisob raqam va boshqa hisoblarni ochish, jamiyatning hisob-kitob hujjatlari va hisobotlarini imzolash;
- kuzatuv kengashining roziligiga ko'ra uning ishida maslahat ovozi bilan ishtirok etish;
- jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritish va uning manfaatlarini himoya qilish;
- jamiyat nomidan bitimlar tuzish, jamiyatning filiali yoki vakolatxonasi rahbarini tayinlash;
- shtatlarni tasdiqlash, jamiyat xodimlarini ishga qabul qilish, ular bilan mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish, ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llash, xodimlar tomonidan mehnat va ijro intizomini saqlab turishini ta'minlash;
- jamiyat nomidan amaldagi qonunchilikka asosan ishonchnomalarni berish;
- jamiyatning barcha xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruq va farmoyishlar chiqarish va ko'rsatmalar berish;
- xodimlarni mukofotlash to'g'risidagi nizomni tasdiqlash, lavozim ish haqlari, ularga ustamalarini, turli qo'shimcha to'lovlarni belgilash, jamiyat xodimlarini rag'batlantirish, shuningdek, jamiyat xodimlarini ijtimoiy himoyalash maqsadida kompensasiya to'lovlarni amalga oshirish;
- o'z vakolatlari doirasida jamiyatning samarali va barqaror ishlashini ta'minlagan holda uning joriy faoliyatiga rahbarlik qilish;
- amaldagi qonun hujjatlariga hamda jamiyat ichki hujjatlariga rioya qilish.

9.10. Bosh direktor o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish tutishi lozim.

9.11. Bosh direktor qonun hujjatlariga va ushbu ustavga muvofiq jamiyat oldida javobgardir.

9.12. Bosh direktor jamiyatning "Ijroiya organi to'g'risida"gi nizom asosida ish olib boradi.

X. NAZORAT

Jamiyatning taftish komissiyasi (taftishchi)

10.1. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish uchun aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi taftishchini bir yil muddatga saylaydi.

10.2. Jamiyat taftishchisining vakolatlari:

- jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish, bunda aksiyadorlar umumiy yig'ilishining, jamiyat kuzatuv kengashining tashabbusiga ko'ra yoki jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko'ra jamiyat kuzatuv kengashini oldindan xabardor qilish yo'li bilan bir yillik yoki boshqa davr ichidagi faoliyat yakunlari bo'yicha tekshiruv amalga oshiriladi.

- jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish yakunlariga ko'ra xulosa tuzish, bunda jamiyatning hisobotlarida va boshqa moliyaviy hujjatlarida ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchliligiga doir baho, buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy

hisobotni taqdim etish tartibi buzilganligi, shuningdek moliya-xo‘jalik faoliyati amalga oshirilayotganda qonunchilik buzilganligi faktlari to‘g‘risidagi axborot ko‘rsatilishi shart.

10.3 Jamiyat taftishchisining majburiyatlari:

- jamiyatda affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar yoki yirik bitimlar mavjudligi, shuningdek qonunchilikning va jamiyat ichki hujjatlarining bunday bitimlarni tuzishga doir talablariga rioya qilinishi yuzasidan har chorakda tekshiruv o‘tkazish va jamiyat kuzatuv kengashining majlisiga olib chiqish;

- jamiyat ustavining 10.2 bandida ko‘rsatilgan axborotni o‘z ichiga olgan xulosaning jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishiga olib chiqish.

10.4. Jamiyat taftishchisining yozma talabiga binoan jamiyatning boshqaruv organlaridagi mansabdor shaxslar moliya-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi hujjatlarni taftish komissiyasiga taqdim etishlari shart.

10.5. Jamiyatning taftishchisi amaldagi qonunchilikka muvofiq aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi chaqirilishini talab qilishga haqli.

10.6. Jamiyat taftishchisi bir vaqtning o‘zida jamiyat kuzatuv kengashining a‘zosi bo‘lishlari, shuningdek jamiyatning boshqaruv organlarida boshqa lavozimlarni egallashlari mumkin emas. Ayni bir shaxs ayni bir jamiyatning taftish komissiyasi (taftishchi) tarkibiga ketma-ket uch martadan ortiq saylanishi mumkin emas.

10.7. Jamiyat taftishchisi faoliyatining tartibi aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlanadigan “Jamiyat taftish komissiyasi to‘g‘risida”gi nizomda belgilab qo‘yiladi.

Ichki audit xizmati

10.8. Jamiyatda kuzatuv kengashiga hisobdor bo‘lgan ichki audit xizmati tashkil etiladi.

Jamiyatning ichki audit xizmati jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalari tomonidan qonunchilikka, jamiyat ustaviga va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda ma‘lumotlarning to‘liq hamda ishonchli tarzda aks ettirilishi ta‘minlanishini, xo‘jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek jamiyatni boshqarish yuzasidan qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish hamda monitoring olib borish orqali jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalari ishini nazorat qiladi hamda baholaydi.

10.9. Jamiyatning ichki audit xizmati o‘z faoliyatini, kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan “Ichki audit xizmati to‘g‘risida”gi nizom va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

Auditorlik tashkiloti

10.10. Auditorlik tashkiloti jamiyat bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq qonunchilikda belgilangan tartibda jamiyat moliya-xo‘jalik faoliyatining tekshirilishini amalga oshiradi va unga auditorlik xulosasini taqdim etadi.

10.11. Auditorlik tashkiloti jamiyatning moliyaviy hisoboti va moliyaga doir boshqa axborot haqidagi noto'g'ri xulosani o'z ichiga olgan auditorlik xulosasi tuzilganligi oqibatida yetkazilgan zarar uchun jamiyat oldida javobgar bo'ladi.

Korporativ maslahatchi

10.12. Korporativ maslahatchi korporativ boshqaruv siyosatiga amal qilish va qayta ko'rib chiqilishida ishtirok etadigan, tegishli tajribani talab qiladigan hamda boshqaruv organlari va mansabdor shahslari tomonidan O'zbekiston Respublikasining huquqiy normalariga, jamiyat ustavi hamda ichki hujjatlariga rioya etilishini ta'minlaydigan jamiyatning mansabdor shaxsdir.

10.13. Korporativ maslahatchi jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan yig'ilishda ishtirok etgan Kuzatuv kengashi a'zolarining ko'pchilik ovozlari bilan tayinlanadi. Korporativ maslahatchi 3 (uch) yil muddatga tayinlanadi.

10.14. Korporativ maslahatchi jamiyatning korporativ boshqaruv siyosatini rioya etilishini, korporativ boshqaruv qoidalariga rioya qilishni tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- Jamiyat boshqaruv organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning samaraliligi, Jamiyat aksiyadorlarining qonuniy huquq va manfaatlariga rioya etilishi tahlili;

- korporativ boshqaruv sohasida qonun hujjatlari buzilishi holatlari bayoni (Jamiyat ustaviga rioya qilish, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlari va Jamiyat boshqaruv organlari majlislari o'tkazilishi, dividendlar to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida to'lanishi, Jamiyat tomonidan affillangan shaxslar bilan bitimlar va yirik bitimlar tuzish tartibiga amal qilish va hokazolar).

XI. YAKUNIY QOIDALAR

Mazkur Ustav O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

“Urganch ekskavator”
bosh direktori



M.S. Bekyazov